



## ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЗИМНИХ ВИДОВ СПОРТА.

Diyorbek Sobirov Abdulxamid o'g'li <sup>1</sup>,  
Akramov Akmaljon Anvarjon o'g'li <sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Toshkent Davlat Yuridik

Universiteti, Xalqaro huquq va qiyosiy  
huquqshunoslik fakulteti talabasi.

E-mail: sobirovyuristbek@gmail.com

Tel: +998998171618,

<sup>2</sup>Toshkent Davlat Yuridik Universiteti,

"Xalqaro xususiy huquq kafedrası" o'qituvchisi  
lawyerjon191919@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7266653>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>st</sup> October 2022

Accepted: 19<sup>th</sup> October 2022

Online: 31<sup>st</sup> October 2022

### KEY WORDS

Nikoh munosabatlari, nikoh shartnomasi, mulk, mulkni taqsimlash, konvensiya, professional ishonchli boshqaruvchi, huquqiy maqom, huquqiy hujjat, kodeks, qonunchilik normalari, taraflar.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada, Xalqaro xususiy huquqda chet el elementi bilan murakkablashgan oila munosabatlarida mulkni taqsimlashning tartib-taomillari va bu borada xorijiy mamlakatlarda o'rnatilgan qonun-qoidalar hamda ushbu qonunlarning amal qilish doiralari haqida ma'lumot berilgan. Muayyan mulkni taqsimlashning huquqiy tartibini belgilash, qolaversa, professional ishonchli boshqaruvchilarning huquqiy maqomini belgilaydigan huquqiy normalarning amal qilishi va ularni amalga oshirishning izchil mexanizmlari va ushbu masalalarda xorijiy davlatlar tomonidan o'rnatilgan qonunlar hamda yuzaga kelgan va kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlar bo'yicha, shuningdek yuqoridagi masalalarni hal etishga oid qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlar, konvensiyalar joy olgan. Shuningdek, ushbu muammoli masalalarni hal etishda amaliyotda yuzaga keladigan kamchiliklar va ularni qay tariqa hal etish kerakligi borasidagi muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va tavsiyalar o'rin egallagan.*

So'nggi yillarda, Respublikamizning mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin, ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalarida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xususan, xorij mamlakatlari bilan savdo-tijoriy shartnomalar tuzish, investitsiya munosabatlari hamda ijtimoiy sohalarda ham ko'plab ilmiy-amaliy kelishuvlar tuzilib, aloqalar yo'lga qo'yilmoqda. Shu bilan birga, Xalqaro

huquqning eng dolzarb va asosiy masalalaridan biri hisoblangan oila munosabatlari ham, ya'ni turli davlat fuqaroligi bo'lgan shaxslar o'rtasida nikoh shartnomasining tuzilishi ham sezilarli darajada ortmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri aholi ko'chishining (migratsiyaning) borgan sari o'sib borishida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni bir davlat fuqarolarining boshqa davlatlarga



ko'chib ketishi yoki u yoki bu davlat fuqarolarining ko'chib kelishi tushuniladi. Bunga qo'shimcha qilib, bir davlat fuqarolarining boshqa bir davlatga ish, o'qish, sayohat, rasmiy tashrif va shunga o'xshash boshqa sabablar bilan tez-tez amaliy tashriflarining natijasini ham aytishimiz mumkin.

Ushbu munosabatlar natijasida nikoh shartnomasining tuzilishi, ya'ni qonunchiligi turli bo'lgan ikki mamlakat turli jins vakillari o'rtasidagi nikoh shartnomasining tuzilishi oqibati huquqni qo'llash amaliyotida kollizion masalalarni yuzaga keltirmoqda. Bunga misol qilib, turli jins vakili bo'lgan O'zbekiston fuqarosi bilan Amerika Qo'shma Shtatlari fuqarosi o'rtasida nikoh shartnomasining tuzilishini misol qilib keltirsak bo'ladi. Ushbu shartnoma tuzilayotganda shartnoma uchun qaysi mamlakat qonunini qo'llash kerakligi, nizoli masalalarni qanday hal etish kerakligi, umumiy mol-mulkka egalik qilish, farzandlikka olish, nikoh shartnomasini bekor qilish, birgalikda egalik qilinayotgan mol-mulkni taqsimlash kabi bir qator kollizion masalalar har ikki mamlakat qonunchilik asoslariga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Ko'plab davlatlar qonunchiligida er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlar uchun qaysi mamlakat qonunchiligini ustuvor qilib belgilashdek ziddiyatli qoidalar mavjud. Shu sababdan xalqaro xususiy huquqda oila munosabatlarida er-xotinning birgalikdagi mulkini taqsimlashda qonuniylikni amaliyotga keng tatbiq etish, muayyan mulkni taqsimlashning huquqiy tartibini belgilash, shuningdek, professional ishonchli boshqaruvchilar huquqiy maqomini belgilab beradigan huquq normalarining yetarli darajada emasligi hamda amal qilishning izchil

huquqiy mexanizmi yaratilmaganligi sababli er-xotin o'rtasidagi mulkni taqsimlashning amaliyotda tenglik asosida amalga oshirilmayotganligiga sabab bo'layotgani albatta quvonarli emas. Hozirgi vaqtda, fuqarolik huquqiy munosabatlar jarayoni vaqtida chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh shartnomasining tomonlari hisoblangan er-xotin o'rtasida mol-mulkka egalik qilish va uni taqsimlashdek masala ko'ndalang turibdi. Ushbu sharoitda qaysi mamlakat tomonidan qo'llanishi kerak bo'lgan huquq normasi ushbu davlat tomonidan yuqoridagi masalaga qonuniy yechim berib, har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lgan usul bilan hal etish, qonuniylikni, tenglik va adolatni ta'minlash orqali hamda gender tenglik qoidalariga asoslangan holda va oila munosabatlari bo'yicha barcha kollizion masalalarga yechim beradigan aniq bir qonun yoki yuridik hujjatning mavjud ekanligi ushbu masalalarning ijobiy, qonuniy, aniq hamda tomonlarning e'tiroziga sabab bo'lmasdan hal etilishi uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh shartnomasini tuzishni O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, hozirgi sharoitda O'zbekiston fuqarolari bilan chet davlat fuqarolari o'rtasida tuzilgan nikoh shartnomalarining soni oshib bormoqda va albatta bu o'z navbatida, ushbu nikohdan tug'ilgan bolalarning ham turli davlat fuqarolari bo'lishi kabi holatlar ortib bormoqda. Yurtimiz hududida shu davrgacha mahalliy aholi va chet el fuqarolari o'rtasida, chet ellik fuqaro bilan boshqa chet el fuqarosi o'rtasidagi tuzilgan nikoh shartnomalari qayd etilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Respublikamiz hududida Respublikamiz fuqarolari bilan



chet el fuqarolari o'rtasida tuziladigan nikoh shartnomasi albatta, kodeks bilan tartibga solingan, ya'ni Oila kodeksining 3-bobida ko'rsatilgan tartib-taomillar asosida amalga oshiriladi. Ushbu kodeksning 234-moddasiga binoan, - "O'zbekiston Respublikasida doimiy turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uning hududidagi oilaviy munosabatlarda o'zaro teng huquq va majburiyatga egadirlar", - deb belgilab qo'yilgan[1]. Ushbu normadan bizga shu narsa ko'rinadiki, ya'ni bunday nikoh shartnomalarini tuzishda nikoh tuzilgan joy, ya'ni O'zbekiston Respublikasi qonuni qo'llanishi ko'rsatilgan. Nikoh shartnomasining tuzilish shakli esa qonunchiligimizga binoan, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida belgilab qo'yilgan tartib-taomillarga asoslangan holda tuziladi. Yurtimizda afsuski, nikohni qayd etishning noqonuniy holatlari ham kuzatilib turadi. Bunga misol tariqasida turli xil rasm-rusmlarga hamda irimlarga e'tiqod qilib tuziladigan nikohlarni keltirishimiz mumkin. Nikoh tuzish dinimizda muqaddas amallardan hisoblanib, o'zining belgilangan qoidalari bor. Dinimizda yuqoridagi holatlar natijasida tuziladigan nikohlar nikoh hisoblanmasligi haqidagi qoidalar mavjud. Albatta, ushbu qoidalar Oila kodeksining 13-moddasida ham ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra: - Diniy rasm-rusmlarga binoan tuzilgan nikoh hech qanday huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh shartnomasida taraflar ushbu shartnomani tuzishga majbur emas hamda ushbu shartnomani o'z xohish-ixtiyoriga ko'ra tuzishlari mumkin. Hech kim boshqa bir shaxsni nikoh shartnomasini tuzishga majburlashi mumkin emas. Nikoh shartnomasi ushbu shartnoma

subyektlarining shaxsan rozligi bilan tuziladi hamda nikoh tuzish uchun tegishli FHDYO organiga ariza berganidan bir oy o'tgach amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, nikoh shartnomasi Respublikamizda har taraflama qonun bilan himoya qilingan va u bilan tartibga solinadi. Endi ushbu nikoh shartnomasini Turkiya davlati misolida ko'ramiz. Turkiyaning Xalqaro xususiy huquqi to'g'risidagi kodeksining tegishli moddasida belgilanishicha, ya'ni tomonlarning ushbu shartnomani tuzish imkoniyati va shartlari hamda shartnoma tuzilayotgan paytda ularning fuqaroligini belgilash qonun bilan tartibga solinishi belgilab qo'yilgan. Shartnomaning haqiqiyliigi va oqibatlariga bo'yicha taraflarning fuqaroligi bo'yicha umumiy qonuni qo'llaniladi, agarda har ikkalasi ham turli davlat fuqarolari bo'lsa, Turkiya qonunlari qo'llanilishi tegishli tarzda o'rnatilgan.[2] Nikoh bu er-xotinning birga yashashi, bir-biriga moddiy hamda ma'naviy yordam ko'rsatishi, bir-birini har vaqt qo'llab-quvvatlashi, qayg'usida ham xursandchiligida ham bir-biriga yelkadosh bo'lishi nikohning o'rni qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Shu sababdan har bir mamlakat qonunchiligida nikoh institutininng o'rni beqiyos va sezilarli darajada o'rin olgan.

Qonunchiligimizga binoan, nikoh tuzish shartnomasini ro'yhatga olish yoki uni tuzish uchun belgilangan talablar bor:

1. Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun esa 17 yosh qilib belgilangan, uzrli deb topilgan alohida hollarga ko'ra esa ushbu yoshni 1 yoshga kamaytirish tegishli tuman, shahar hokimi tomonidan amalga oshiriladi;
2. Nikoh taraflarning o'z ixtiyori bilan tuziladi;



3. Nikohni tuzishda taraflar bo'lmish bo'lajak er-xotin nikohni tuzish uchun o'z roziliklarini erkin ifoda etishlari lozim;

4. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.

5. Aqalli ikkitasidan biri muomala layoqatiga ega bo'lmasa nikoh tuzish taqiqlash;

6. Taraflardan biri ruhiy nosog'lom bo'lsa ushbu shartnomani tuzish mumkin emas;[3]

Bularga qo'shimcha qilib shuni aytishimiz mumkinki, misol uchun Italiyada biri boshqa shaxsning turmush o'rtog'ini o'ldirish yoki o'ldirishga urinishda ayblangan shaxslar o'rtasida nikoh qurishga ruxsat berilmaydi. Germaniya va Fransiyada ajrashgan ayol yoki beva ayol ma'lum bir muddatgacha boshqa turmushga chiqa olmaydi. Shveytsariya nikohni bekor qilishga sababchi bo'lgan tomon ajrashgandan keyin bir yildan uch yilgacha bo'lgan muddatda qayta turmush qurishni taqiqlaydigan normalar ham mavjud. Shuningdek, nikoh shartnomasini tuzayotganda u yoki bu taraf, ya'ni chet el fuqarosi yoki O'zbekiston fuqarosi shu paytga qadar boshqa nikohda bo'lishi mumkin emas. Misol uchun, Germaniya fuqarosi O'zbekiston fuqarosi bilan nikoh shartnomasini tuzayotgan paytda, Germaniyalik boshqa fuqaro bilan yoki boshqa chet ellik fuqaro bilan nikohda bo'lishi mumkin emas. Buni qanday aniqlash mumkin degan savolga ushbu fuqaroning pasportida nikoh tuzilganligi to'g'risidagi muhr orqali deb javob berishimiz mumkin. Yoki hujjatlarida oilaviy ahvoli to'g'risida hech qanday ma'lumot yozilmaydigan fuqarolarning nikoh qayd etilgan yoki qayd etilmaganligi to'g'risidagi hujjatni O'zbekistonda joylashgan ushbu fuqaro davlatining

elchixonalari orqali olishlari mumkin. Albatta, ushbu konsullik nikoh tuzilayotgan davlatning mahalliy organiga, ya'ni fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etish organiga ma'lum qilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 235-moddasiga binoan: "O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar, agar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi",- deb belgilab qo'yilgan.[4] Demak, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan fuqarolarimiz tegishli xorijiy davlatdagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasida tuzgan nikohlarini qayddan o'tkazishi mumkin. Agar elchixona joylashgan davlatda O'zbekiston fuqarosi chet ellik bilan tuzadigan nikoh ham haqiqiy deb tan olinsa, konsul bunday nikohlarni ham qayddan o'tkazishni amalga oshiradi.[5] Bunday nikohlar tuzilayotgan paytda konsulimiz, albatta, O'zbekiston qonunlarini, shu jumladan O'zbekistonning kollizion normalarini ham qo'llaydi. Davlatimiz xorijiy davlatlar bilan tuzgan bir qator konsullik konvensiyalarida konsulning nikoh





shartnomalarini hamda fuqarolik holatining boshqa hujjatlarini qayddan o'tkazish huquqi nazarda tutilgan. O'zbekiston fuqarolari respublika hududidan tashqarida va xorijiy davlatlarning vakolatli organlarida nikohdan o'tishlari mumkin. Bu yerda gap endi ikkita O'zbekiston fuqarosi o'rtasidagi, respublikamiz fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohlar to'g'risida ketmoqda. Nikoh tuzilgan joy qonunlariga rioya qilingan bo'lsa, xorijiy davlatlar organlarida tuzilgan nikohlar ham O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb tan olinadi. Bunda endi nikohning shakllari va nikoh tuzish shartlari to'g'risidagi qonunchilikning ko'rsatmalari nazarda tutilmoqda. Shunga binoan, masalan, biror xorijiy davlatlarda diniy shaklda tuzilgan nikoh, agar bu mamlakatda shunday nikohlar yuridik kuchga ega bo'lsa, O'zbekistonda ham haqiqiy deb tan olinishi lozim.

Xalqaro xususiy huquqda oila munosabatlarida mulkning vujudga kelish va taqsimlash tartiblari albatta o'ziga yarasha muammoli jarayon hisoblanadi. Nikoh shartnomasi tuzilgandan keyin, er-xotinning ushbu shartnomani bekor qilishgacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'zlarining ehtiyojlari yoki boshqa munosabatlar sababli qo'lga kiritgan moddiy boyliklari ularning birgalikdagi umumiy mulklari hisoblanadi. Bularga yashash uchun qurgan yoki sotib olgan uyidan tortib, hatto sotib olgan stakan va qoshiqlarigacha kiradi, aytmoqchi bo'lganim agar mulkni taqsimlash paytida taraflardan biri ushbu mayda detallargacha ahamiyat bersa, ushbu qoshiq va stakanni ham berayotgan arizasiga kiritishi lozim deb hisoblayman. Shuningdek, ular

qatoriga meros va xayr-exsonlar ham kiradi. Turmush o'rtoqlarning irodasi avtonomiyasi cheklangan holatlarda: ular faqat umumiy fuqaroligi bo'lgan mamlakat qonunini yoki doimiy yashash huquqini tanlashi mumkin. Qonunni tanlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, shaxsiy munosabatlar er-xotinning umumiy fuqaroligi bo'lgan davlat qonuni yoki ularning doimiy yashash joyi qonuni yoki barcha holatlarni hisobga olgan holda davlat qonuni bilan tartibga solinadi." Ba'zi davlatlarda esa erning shaxsiy qonuni hali ham hukmron bo'lishini ko'rishimiz mumkin: "Er va xotin o'rtasidagi munosabatlarga kelsak, agar ular bir fuqarolikka ega bo'lsa yoki xotin nikoh orqali erining fuqaroligini olgan bo'lsa, har ikkala er va xotin uchun ham umumiy bo'lgan qonun, agar xotin nikoh orqali erining fuqaroligini olmagan bo'lsa, erning fuqaroligi to'g'risidagi qonun amal qiladi.[6] Nikoh natijasida yuzaga keladigan oqibatlarga nisbatan qo'llaniladigan huquq nikoh oqibatlari yuzaga kelgan paytda er-xotinning ikkalasi ham hududida birga yashagan davlatning qonuni, birgalikda yashash joyi bo'lmagan taqdirda esa, bunday oqibatlar yuzaga kelgan paytda er-xotinning ikkalasi ham fuqarosi bo'lgan davlatning qonunchiligi qo'llaniladi. Agarda taraflar o'rtasida tuzilgan nikoh shartnomasining oqibati hech bir kriteriyaga mos kelmasa, sud joylashgan joy qonuni qo'llanishi belgilangan.[7]

Mulkni taqsimlash va shunga oid bo'lgan nizolar to'g'risida ko'plab konvensiyalar va normativ huquqiy hujjatlar imzolangan. Misol tariqasida 1978-yilgi "Er-xotinning mulkiy rejimiga nisbatan qo'llaniladigan qonun to'g'risi"dagi Gaaga konvensiyasi, ushbu konvensiya bevosita nikoh



shartnomasi va uning amal qilish muddatiga oid qoidalarini o'z ichiga oladi. 1993-yil 22-yanvardagi "Fuqarolik, oila, jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Minsk shartnomasi, MDH davlatlarining qabul qilgan shartnomasi hisoblanib, unda er-xotin o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarning kollizion masalalari ifoda etilgan. Qoida bo'yicha er-xotinning o'rtasidagi bunday munosabatlar hududida er-xotin birga yashash istiqomat joyiga ega bo'lgan mamlakat qonunchiligi bilan hal etiladi. Agar er-xotin boshqa-boshqa mamlakatlarda yashasa, ammo ma'lum bir davlat fuqaroligiga ega bolishsa, ular fuqarolikda turgan mamlakat qonunchiligi qo'llaniladi. Agar er va xotin turli mamlakatlar fuqarolari bo'lishsa, ular so'nggi marta qaysi davlatda birga yashash joyiga ega bo'lgan bo'lishsa, o'sha davlat qonunchiligi qo'llaniladi. Ushbu konvensiyaning 27-moddasida aytilishicha, er-xotinning ko'chmas mulklariga taalluqli munosabatlari ko'chmas mulk joylashgan mamlakat qonunlariga binoan hal etiladi. 2002-yil 7-oktabrdagi "Fuqarolik, oilaviy, jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Kishinyov konvensiyalari va boshqa hujjatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu konvensiyalarda o'rnatilgan qoidalar albatta ushbu konvensiyaning a'zo davlatlari o'rtasida oilaviy munosabatlarda birgalikdagi umumiy mol-mulklarni taqsimlash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlar hisoblanadi. Minsk konvensiyasining 27-moddasi hamda Kishinyov konvensiyasining 30-moddasida er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy munosabatlariga nisbatan amaldagi

qonunchilikni aniqlashning bir xil mezonlari quyidagicha belgilab qo'yiladi:

- er-xotinning birgalikda yashash huquqi;
- er-xotinning fuqaroligi bo'lgan davlat qonuni, agar ular turli davlatlar hududida yashasa, lekin bir xil fuqarolikka ega bo'lsa;
- er-xotinning oxirgi birgalikdagi yashash joyidagi davlatning qonuni, agar er-xotin turli xil fuqarolikka ega bo'lsa, turli shtatlarda yashasa;
- sud mamlakatining qonunchiligi, agar turli fuqarolikka ega bo'lgan turmush o'rtoqlar turli shtatlarda yashasa va hech qachon Ahdlashuvchi davlatlardan birining hududida yashamagan bo'lsa.

Shu bilan birga, turmush o'rtoqlarning ko'chmas mulkiga oid huquqiy munosabatlari ushbu mulk hududida joylashgan ahdlashuvchi davlat qonunchiligi bilan belgilanadi.

Ushbu normalarni kitobxonlar uchun Turkmaniston davlati misolida yoritib berishga harakat qildim. Yaqin yillar ichida Turkmanistonda oila va nikoh institutida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Turkmanistonda oila shaxsni shakllantiruvchi eng ta'sirchan omillardan biri hisoblanadi. Haqiqiy Turkman oilasi uchun eng yoqimli an'ana nima ekanligini bilasizmi, bu – *yashil choy ichishdir*. [8] Bu narsa barcha oila a'zolarini birlashtiradi hamda bir-birlari bilan muloqotga vaqt ajratishga imkon beradi. Albatta, bu an'ana turkman xalqi uchun o'ziga xos yuksak an'analardan hisoblanadi, umuman olganda Turkman xalqi mehmondo'st va xushmuomila xalqdir. Turkmanlarda nikoh marosimi diniy asosga ega, shuning bilan birgalikda, fuqarolarning diniy imtiyozlaridan qat'i nazar, deyarli har qanday nikohni Turkmaniston hududida



ro'yhatdan o'tkazish paytida amalga oshiriladi. Turkmanlar o'z vatandoshlariga nisbatan hurmatli va xayrixoh, ammo chet elliklar bilan juda ehtiyotkorona munosabatda ba'zan esa tajovuzkor ham bo'lishadilar. Turkmaniston fuqarolari bilan chet ellik fuqarolar turmush qurish niyatida bo'lsalar, turmush qurmoqchi bo'lgan har bir chet el fuqarosi "Turkmengosstrax" jamiyatiga 50 ming dollar to'lashi talab etiladi. Ushbu qaror 1990-2006 yillarda Turkmaniston rahbari bo'lib faoliyat yuritgan davlat arbobi Saparmurod Niyazov tomonidan chiqarilgan. Turkmaniston "Davlat kalimi to'g'risida" gi farmonda bo'lajak er Turkmaniston hududida kamida bir yil yashashi va shu bilan birga, unga rioya qilishi kerak bo'lgan xalqning urf-odatlarini va an'analarni o'rganishi shart ekanligi belgilangan. Bunga qo'shimcha, kuyovning, to'g'rirog'i bo'lajak urning Turkmaniston hududida o'zining uyi bo'lishi hamda ushbu mamlakat tibbiyot muassasidan uning mutlaqo sog'lom ekanligi to'g'risida guvohnomaga ega bo'lishi shartligi belgilangan. Ushbu qarordan bir yil oldin esa Turkmanistonda chet elliklar bilan nikoh tuzish taqiqlangan edi va albatta ushbu qaror oqibatida Turkmanistonning Ashxobod shahridagi ro'yhatga olish idoralarining ma'lumotlariga ko'ra, bu hodisa mingdan ziyod yangi turmush qurganlarning rejalarini buzdi va ularning aksari fuqarolari o'sha yilning o'zida chet elda, Turkiya, Fors ko'rfazi mamlakatlari hamda O'zbekistonda oila qurish uchun tark etishgandi. Ushbu qaror oqibatida 5,5 million bo'lgan turkmanlarda aholi o'sishi yiliga 5 foizga kamayganligini statistik ma'lumot orqali bilishimiz mumkin. "Davlat kalimi to'g'risida" gi qarorda oila munosabatlariga oid barcha ziddiyatli

masalalarni hal etish uchun tegishli normalar o'rnatilgan, lekin bitta ziddiyatli holat e'tibordan chetda qolgan, ya'ni nikohdan ajrashayotganda hamda mulkni taqsimlashda oila qurmoqchi bo'lgan erkakning to'lagan 50 ming dollar puli erga qaytarib berilishi yoki berilish kerak emasligi masalasi ochiq qolgan edi. So'nggi yillarda, Turkmanistonda oila nikoh masalalari bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirildi. 2020-yilda Turkmaniston Tashqi Ishlar Vazirligi tomonidan chiqarilgan yangi buyruq aslida xalqaro nikohga chek qo'yadi lekin chet elliklar bilan tuziladigan nikoh rasman cheklanmagan, ammo, endi, agar chet ellik Turkman ayoliga uylanmoqchi bo'lsa, u 50 ming dollarni uning maxsus xisob raqamiga o'tkazishi kerakligi belgilab qo'yiladi. Agarda nikohdan ajralib mulkni taqsimlash jaroyonida esa, ushbu pul bolalarni ta'minlash kafolatiga aylantirilishi belgilab qo'yilgan, qolgan hollarda mulkni taqsimlash esa tomonlarning shartnomada belgilab qo'yilgan qoidalar asosida mulklari taqsimlanadi, ya'ni Turkmaniston Kishinyov konvensiyasining a'zosi ekanligini hisobga olgan holda tomonlarning birgalikdagi umumiy mulklari konvensiyaning tegishli moddalari asosida hamda konvensiyaga implementatsiya qilingan mamlakat ichki qonunlari asosida tartibga solinadi. 2002-yil, 7-oktabrda qabul qilingan ushbu Kishinyov konvensiyasini bimalol, xalqaro xususiy huquqda yuzaga keladigan muammolarga ijobiy, qonuniy, adolatli hamda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf eta oladigan konvensiya,- deb aytish mumkin. Ushbu konvensiyaning 29-moddasidan boshlab nikoh tuzish, uning shartlari, er-xotinning huquqiy munosabatlari, nikohdan ajralish kabi



masalalarni o'zida qamrab olgan normalar mavjud. Shuningdek, mulkiy huquqiy munosabatlarga oid bo'lgan normalarni ham o'zida mujassam etgan. Agarda oila munosabatlari bo'yicha muammoli masala kelib chiqqan taqdirda Kishinyov konvensiyasi yetarli darajada masalaga yechim beraoladi deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro xususiy huquqda oila munosabatlarida mulkni taqsimlashda yuzaga kelgan hamda keladigan muammolar birma bir izchillik bilan ijobiy hal etilib tegishli tartibda tomonlarning imzolari hamda roziliklari asosida amalga oshirilmoqda, Yuqoridagi kabi holatlarga tushib qolib, keyin yana bir marta qonun normalariga o'zgartirish kiritib, uni qonuniy yoki noqonuniy ekanligi isbotlab, tegishli qonun hujjati ishlab chiqqandan ko'ra, har bir xalqaro

hujjatga qo'shilishdan oldin mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy holati, aholining yashash sharoiti va imkoniyatlari, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olishga qaratilgan ishlarni tezkorlik bilan implementatsiya jarayonlariga tatbiq etish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. To'g'ri, bu kabi holatlar vujudga kelishini hechkim oldindan bila olmaydi, lekin imzolayotgan, ratifikatsiya qilayotgan xalqaro hujjatning oqibatlarini keng muhokamaga qo'yish orqali ham muammolarga yechim bersa bo'ladi deb o'ylayman. Nikohdan ajrashish vaqtida mulkni taqsimlashda qo'llanishi kerak bo'lgan joy qonunini to'g'ri belgilashda men Minsk hamda Kishinyov konvensiyalarini muammoga aniq yechim beraoladi deb hisoblayman..

## References:

1. <https://lex.uz/>
2. Turkiya Xalqaro xususiy huquqi to'g'risidagi kodeks;
3. 1978-yilgi "Er-xotinning mulkiy rejimiga nisbatan qo'llaniladigan qonun to'g'risi"dagi Gaaga konvensiyasi;
4. 1993-yil 22-yanvardagi "Fuqarolik, oila, jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Minsk shartnomasi;
5. 2002-yil 7-oktabrdagi "Fuqarolik, oilaviy, jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Kishinyov konvensiyalari;
6. Turkmaniston "Davlat kalimi to'g'risida" gi farmon;
7. <https://nikifilione.ru>
8. <https://library.samdu.uz>
9. Международное частное право. Учебник / Под ред. Г.К. Дмитриевой. М., 2000. С. 540-556; Международное частное право. Учебник / Под ред. Н.И. Марышевой. М., 2000. С. 383-414;